

**JAMOAT EKOLOGIK EKSPERTIZASINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY
TARTIBI**

Mo'sajonov Husanboy Farhodjon o'g'li
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistranti
Email: mosajonovhusanboy02@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20922708>

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoat ekologik ekspertizasining tushunchasi, huquqiy mohiyati hamda uni amalga oshirishning huquqiy tartibi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida jamoat ekologik ekspertizasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar, uning subyektlari va amalga oshirish bosqichlari yoritilgan. Maqolada jamoat ekologik ekspertizasi xulosasining huquqiy ahamiyati, amaliyotda uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan. Muallif jamoat ekologik ekspertizasining ekologik xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi o'rnini ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab beradi.

Kalit so'zlar: jamoat ekologik ekspertizasi, ekologik xavfsizlik, ekologik qonunchilik, jamoatchilik nazorati, atrof-muhit, ekologik huquqlar, ekspertiza xulosasi.

**LEGAL PROCEDURE FOR CONDUCTING PUBLIC ENVIRONMENTAL
EXPERTISE**

Musajonov Khusanboy Farkhodjon ugli
Master's student at Tashkent State University of Law

Abstract

This article analyzes the concept, legal essence, and procedure for conducting public environmental expertise. It also highlights the legal and regulatory framework governing public environmental expertise in the Republic of Uzbekistan, its subjects, and the stages of its implementation. The article examines the legal significance of the conclusions of public environmental expertise, the problems encountered in practice, and proposals for their elimination. The author scientifically and legally substantiates the role of public environmental expertise in ensuring environmental safety, protecting citizens' environmental rights, and strengthening public oversight.

Keywords: public environmental expertise, environmental safety, environmental legislation, public oversight, environment, environmental rights, expert opinion.

**ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ
ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТЫ**

Мўсажонов Хусанбой Фарходжон ўғли
Магистрант

Ташкентского Государственного Юридического Университета

Аннотация

В данной статье проанализированы понятие, правовая сущность и порядок осуществления общественной экологической экспертизы. Также освещены нормативно-правовые основы, регулирующие общественную экологическую экспертизу в Республике Узбекистан, её субъекты и этапы проведения. В статье

рассматриваются правовое значение заключения общественной экологической экспертизы, проблемы, встречающиеся на практике, а также предложения по их устранению. Автор научно и юридически обосновывает роль общественной экологической экспертизы в обеспечении экологической безопасности, защите экологических прав граждан и усилении общественного контроля.

Ключевые слова: общественная экологическая экспертиза, экологическая безопасность, экологическое законодательство, общественный контроль, окружающая среда, экологические права, заключение экспертизы.

Kirish

Bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi salomatligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlab qolishda ekologik ekspertiza muhim ahamiyatga ega. Xususan, jamoat ekologik ekspertizasi fuqarolarning ekologik masalalardagi ishtirokini ta'minlovchi muhim huquqiy institut hisoblanadi.

Jamoat ekologik ekspertizasi orqali fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari rejalashtirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatning ekologik oqibatlarini baholashda ishtirok etadilar va o'zlarining bu faoliyatga nisbatan munosabatlarini ifodalashga harakat qiladilar. Bu esa ekologik xavfning oldini olish, shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Metodlar. Maqola IMRAD usuli asosida yozildi. Mazkur maqolani tayyorlashda formal-yuridik, tahliliy, mantiqiy-huquqiy hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali O'zbekiston Respublikasining ekologiya sohasiga oid qonun hujjatlari, jumladan, "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi qonun, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun normalari va bir qancha ushbu munosabatni tartibga soluvchi qonunchilik normalari tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada jamoat ekologik ekspertizasining amaliyotdagi o'rni, mavjud muammolar va ularning yechimlarini yoritishda tahliliy hamda mantiqiy-huquqiy usullardan foydalanildi. Jamoat ekologik ekspertizasining bosqichlari, subyektlari va huquqiy mexanizmlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishda tizimli yondashuv usuli qo'llanildi.

Bundan tashqari, ayrim huquqiy institutlarni o'zaro solishtirish va ularning o'ziga xos jihatlari aniqlashda qiyosiy-huquqiy usuldan ham foydalanildi.

Jamoat ekologik ekspertizasining tushunchasi va mohiyati

Jamoat ekologik ekspertizasi — bu jamoatchilik tashabbusi asosida amalga oshiriladigan, rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini baholash jarayonidir. Mazkur ekspertiza fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash vositalaridan biri hisoblanadi.

Uning asosiy maqsadi:

- ekologik xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan faoliyatni baholash;
- ekologik qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish;
- jamoatchilik fikrini inobatga olish;
- inson salomatligi va tabiatga zarar yetkazilishining oldini olishdan iborat.

Jamoat ekologik ekspertizasining huquqiy asoslari

O'zbekistonda jamoat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish huquqiy jihatdan ancha sayoz tarzda tartibga solingan deb hisoblayman. O'zbekistonda jamoat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish huquqiy asosi "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlar hisoblanadi¹. "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi qonunda jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni qonun e'lon qilingan kundan boshlab 6 oy ichida ishlab chiqish vazifasi yuklatilganligiga qaramasdan, haligacha bu nizom ishlab chiqilmagan.

Qonunchilikka ko'ra, jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi va uning o'tkazilishiga to'sqinlik qilish qonundan man etiladi.² Jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilishidan qati nazar amalga oshirilishi mumkin. Lekin jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiyaviy xususiyatga ega bo'ladi.³

O'zbekistonda jamoat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazishning tahminiy 5-bosqichdan iborat bo'lgan tartibi:

1. Tashabbus va guruh shakllantirish: 1-bosqich.

Jamoatchilik vakillari (yoki NNT) muayyan loyihani ekspertizadan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bu ish bilan shug'ullanadigan va tarkibiga ekologlar, huquqshunolar hamda soha mutaxassislari kirgan mustaqil ekspertlar guruhi tuziladi.

2. Buyurtmachi va hokimiyatni xabardor qilish:

Loyiha buyurtmachisiga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga jamoat ekologik ekspertizasi boshlangani haqida rasmiy bildirishnoma yuboriladi.

3. Hujjatlarni olish va tahlil qilish:

Buyurtmachidan yoki maxsus vakolatli davlat organ(lar)idan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasini, ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonotni, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonotni o'z ichiga oladigan atrof-muhitga ta'sirni baholash materiallarini, ekologik normativlarning loyihalari, obyektning atrof-muhitga va inson sog'lig'iga ta'sir ko'rsatish holati aniqlangan taqdirda, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risida tayyorlangan bayonot so'rab olinadi. Ekspertlar guruhi ushbu loyihaning atrof muhot komponentlariga keltirishi mumkin bo'lgan zararini tahlil qiladi.

4. Jamoatchilik fikrini o'rganish :

Loyiha qurilishi rejalashtirilayotgan hududdagi aholi o'rtasida so'rovnomalar o'tkaziladi yoki jamoatchilik eshituvlari tashkil etiladi. Fuqarolarning e'tirozlari va takliflari yozib olinadi.

5. Xulosa tuzish va taqdim etish:

Hujjatlar tahlili va aholi fikrlari umumlashtirilib, jamoat ekologik ekspertizasi xulosasi tayyorlanadi. Bu xulosa Maxsus vakolatli davlat organiga, loyiha buyurtmachisiga va ommaga yetkazilishi uchun OAVga taqdim etilishi mumkin bo'ladi.

Jamoat ekologik ekspertizasi xorij tajribasida

¹ <https://lex.uz/docs/-7397280#-7406902>:

² O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuni

³ <https://lex.uz/docs/-7397280>

O'zbekistonda ekologik ekspertiza amaliyoti endilikda shakllanayotgan va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitida chet el tajribalarini o'rganish va ulardan mavjud muammolar yechimini topishda foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Majburiy ekologik ekspertiza protsedurasini o'tkazish amalida dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarida qabul qilingan. Ular tashkiliy-huquqiy, ma'muriy prinsiplari, baholash metodologiyasi bo'yicha turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Shu bilan bir qatorda ular uchun umumiy bo'lgan xususiyat ham bor bo'lib, ular qatorida ekologik ekspertizaning, ekologik xavfsizlik va ekologik farovonlikga erishish maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilishi hisoblanadi.

Dunyoda ekologik ekspertiza tartibi (instituti) XX asming 70-80yillarida faol shakllana boshlagan. Yangi loyihalarni ekologik ekspertizadan o'tkazishning zarurligi gonunchilik darajasida dunyoda birinchi bo'lib AQSH da amalga oshirildi. 1969 yilda AQSH da ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ekologik ekspertizada mugobillik (al'ternativ) talabini majburiy gilib qo'ydi. Bunda loyihani ro'yobga chiqarishning ehtimol tutilayotgan ekologik oqibatlarini tahlil qilish bilan bir qatorda unga qanday muqobillik borligini ko'rsatish ham talab qilindi.⁴

AQSH ekologik ekspertizasi mavjud ishlab chiqilgan va rivojlangan qonunlar va normativ aktlar tizimidan iborat bo'lgan federal va mahalliy darajadagi puxta huquqiy asosga ega. Masalan, «Atrof-muhitga ta'sir to'g'risida bayonot»ni (boshqacha aytganda ekologik ekspertizani) tayyorlash protsedurasi loyihani amalga oshirishning ekologik, ijtimoiy, estetik, madaniy-tarixiy oqibatlarini qamrab oladi. Loyihaning bir nechta raqobatlashuvchi variantlari taqdim etilib, ular tahlil qilinadi va taqqoslanadi, shunga asoslanib ekologik xulosa chiqariladi.

Jamoat ekologik ekspertizasi o'tkazish oddiy aholi uchun qiyin va qimmat jarayon. Shu sababli Kanadada davlat maxsus jamg'armalardan mahalliy aholi va NNTlarga mustaqil ekologik ekspertlarni yollash uchun moliyaviy yordam ajratadi.⁵ Yaponiyada loyiha egasi jamoatchilik bilan uzoq muddatli muzokaralar o'tkazadi va aholi roziligini olmaguncha davlat unga litsenziya bermaydi.⁶

Jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha mavjud muammolar:

1. Jamoat tashkilotlarida murakkab loyihalarni mustaqil ekspertiza qilish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi;
2. Yirik ishlab chiqarish korxonalari tomonidan tijorat siri bahonasi bilan ekologik ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallarni taqdim etishni paysalga solish holatlari.
3. Jamoat ekologik ekspertizasi xulosalarini inobatga olishning darajasi pastligi.

Yechimlar:

Ushbu muammolarni hal qilish uchun ekologik ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallarni taqdim etishni, jamoat ekologik ekspertizasi xulosalarini bajarmaslik yoki davlat ekspertizasini o'tkazuvchi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan jamoat ekologik ekspertizasi xulosalarini hisobga olishni asossiz rad etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish,

⁴ National Environmental Policy Act (NEPA) of 1969

⁵ Canadian Environmental Assessment Act

⁶ Environmental Impact Assessment Act of Japan (Law No. 81 of 1997).

shuningdek, ekologik NNTlarga davlat grantlarini ajratish tizimini kengaytirish hamda Yaponiya tajribasini joriy qilish.

Xulosa

Ushbu tadqiqot jamoat ekologik ekspertizasi O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim huquqiy instituti ekanligini, biroq uning amaliy mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatdi. Sohaga oid yangi qonun qabul qilingan bo'lsa-da, uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomning haligacha ishlab chiqilmaganligi tizimda asosiy huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sohani takomillashtirishning quyidagi uchta ustuvor yo'nalishi taklif etiladi:

1. Huquqiy asos: "Jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomni tez fursatda qabul qilish va unda ekspertiza o'tkazishning aniq 5 bosqichli protsedurasini mustahkamlab qo'yish.

2. Javobgarlik va ochiqlik: Korxonalar tomonidan ekologik materiallarni "tijorat siri" vaji bilan yashirishini taqiqlash hamda jamoat ekspertizasi xulosalarini davlat organlari tomonidan asossiz rad etganlik uchun huquqiy javobgarlikni kuchaytirish.

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: AQSh, Kanada va Yaponiya tajribasini joriy etgan holda, ekologik NNTlarga mustaqil laboratoriya tahlillari uchun maqsadli davlat grantlarini ajratish va qaror qabul qilishda aholi roziligi mexanizmini joriy etish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2025-y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2018-y.
4. Бринчук М. М. Экологическое право: Учебник. — М.: Эксмо, 2010. — 672 с. (Ekologik ekspertiza mohiyati va jamoatchilik ishtiroki qismida).
5. National Environmental Policy Act (NEPA) of 1969, 42 U.S.C. §§ 4321–4347. (AQShning atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonot va ekologik ekspertizaga oid qonunchiligi uchun).
6. Canadian Environmental Assessment Act (CEAA) / Impact Assessment Act (IAA), 2019.
7. Environmental Impact Assessment Act of Japan (Law No. 81 of 1997).
8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz) — <https://lex.uz>. (Maqolada keltirilgan "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi hamda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunlar matnini o'rganish uchun).
9. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy veb-sayti — <https://gov.uz/eco>
10. AQSh Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (U.S. Environmental Protection Agency - EPA) rasmiy portal — [U.S. Environmental Protection Agency | US EPA](https://www.epa.gov) (NEPA qonunchiligi va AQShdagi muqobillik (alternativ) talabi mexanizmini o'rganish uchun).
11. Kanada Atrof-muhitni baholash agentligi (Impact Assessment Agency of Canada) — [Impact Assessment Agency of Canada - Canada.ca](https://www.impactassessment.ca).

12. Yaponiya Atrof-muhit vazirligi (Ministry of the Environment, Government of Japan) — [Ministry of the Environment, Government of Japan](#)
13. Nigmatov A. N., Ergashev B. A. Ekologik nazorat va ekspertizaning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi – Toshkent, 2021. – №2. – B. 88-94.
14. Khamrakulov M. S. Public participation in environmental decision-making: Legal insights from Uzbekistan // Central Asian Journal of Environmental Science and Technology. – 2024. – Vol. 5, No. 2. – P. 112-120.
15. Wood C. Environmental Impact Assessment: A Comparative Review (2nd Edition)